Toshknt davlat tibbiyot universiteti
Kuzatuv kengashining
2025 yil "25" avgust dagi
4-son bayoni bilan
TASDIQLANGAN
4-Ilova

Toshkent davlat tibbiyot universitetining talabalar turar joylari to‘g‘risidagi Nizom

Mazkur Toshkent davlat tibbiyot universitetining talabalar turar joylari to‘g‘risidagi Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son, “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 4-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari talabalarini turar joy bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-son qarorini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan hamda Toshkent davlat tibbyot universiteti (keyingi o‘rinlarda – universitet)dagi talabalarni talabalar turar joylariga joylashtirilishiga oid bo‘lgan munosabatlarni tartibga soluvchi ichki huquqiy hujjathisoblanadi.

1-bob. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizomning qoidalari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurilgan talabalar turar joylarining xususiy sherik uchun tijoriy maqsadlarda ajratiladigan o‘rinlariga talabalarni qabul qilishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Universitetga uzoq shahar va viloyatlardan kelib ta’lim olayotgan talabalarni vaqtincha yashash joyi bilan ta’minlash maqsadida “Talabalar turar joyi” (keyingi satrlarda TTJ) tashkil etiladi.

3. TTJ boshqaruvi uchun – mazkur Nizom asosida universitet rahbariyati tomonidan talabalar turar joyi direksiyasi shakllantiriladi hamda o‘z faoliyati yo‘nalishiga, ish rejasi va dasturiga, maxsus muhriga, shtat birligiga ega bo‘lib, talabalar turar joyining ma’muriy, xo‘jalik, ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarini boshqaradi.

4. TTJda talabalarning yashashi, o‘quv va 5 ta muhim tashabbus xonalari, o‘z ustida mustaqil ishlashi, dam olishi hamda sport, san’at va boshqa to‘garaklarga qatnashishi uchun sharoitlar yaratiladi.

5. TTJning moddiy-texnik ta’minoti, uni kapital va joriy ta’mirlash, binodagi qattiq va yumshoq krovat, mebel, xona jihozlari (ko‘rpa-to‘shak, yopinchiqlar, sochiqlar, choyshab va boshqalar), texnika vositalarini saqlash, ta’mirlash, hududni obodonlashtirish, tozaligini ta’minlash, kommunal-xo‘jalik xizmatlari (issiq va sovuq suv ta’minoti, elektr energiya, kanalizatsiya, issiq suv quvurlarini ta’mirlash) va boshqa shart-sharoitlar universitet ma’muriyati tomonidan xodimlar va talabalar ishtirokida ta’minlanadi.

6. Universitetda talabalarni TTJga joylashtirish, TTJga joylashish uchun onlayn navbatga turish davlat xizmatlari markazi va O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali amalga oshiriladi.

7. TTJda istiqomat qiluvchi talabalar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan ta’sis etilgan qoidalar asosida vaqtincha hisobga olinishi mumkin.

8. Tarbiyaviy-madaniy, sport-sog‘lomlashtirish ishlari va talabalar turar joyida

yashovchilarga maishiy xizmat ko‘rsatishni tashkil etish borasidagi umumiy rahbarlik universitet rektori zimmasiga yuklatiladi.

9. Talabalarning ichki tartib-qoidalariga bo‘ysunishi, ularning ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy hamda sport sohalarida rivojlanishlari, ajratilgan xonalarni toza va ozoda saqlashi bo‘yicha tarbiyachi pedagoglar mas’ul hisoblanadi.

10. TTJga begonalar, talabalarning oila a’zolarini joylashtirish qat’iyan man etiladi.

11. TTJda yashash uchun to‘lov miqdori har o‘quv yili boshida universitetning Ilmiy Kengashida muhokama qilinib belgilanadi.

2-bob. TALABALAR TURAR-JOYI DIREKSIYASINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

1. TTJning o‘rnatilgan me’yoriy talablar asosida faoliyat yuritishi uchun shaxsan TTJ direksiyasining raxbari mas’uldir.

2. TTJda 5 ta muhim tashabbus xonalari, dam olish xonasi, oshxona, hojatxona, yuvinish xonasi, dush va dazmol xonalari tashkil etilishi lozim.

3. TTJda kutubxona filiali tashkil etiladi va reja asosida o‘z faoliyatini olib boradi.

4. TTJdagi oshxonalar gaz yoki elektr plitalari, stol-stul, suv tarmog‘i, sanitariya jihozlari bilan ta’minlanishi hamda yong‘in xavfsizligi talablariga to‘liq javob berishi shart.

5. TTJdan foydalanish, me’yoriy-axloqiy tartiblarga rioya qilinishini ta’minlash, talabalarga qulay sharoitni yaratish maqsadida Talabalar turar-joylari Direksiyasi bo‘limi tashkil etiladi. Bo‘lim tarkibida talabalar turar joyi direksiyasi direktori va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar universitet shtat birliklari doirasida shakllantiriladi. Namunaviy shtat birligida ko‘zda tutilmagan xodimlar jamoatchilik asosida ishga jalb etiladi. Uning tarkibi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- xo‘jalik ishlari bo‘yicha boshliq o‘rinbosari;
- Talabalar kengashi raisi (o‘rinbosar).

6. TTJ boshqaruvini tashkil etish, olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish mas’uliyati Talabalar turar-joylari Direksiyasi direktori zimmasiga yuklatiladi.

7. Talabalar turar-joylari direksiyasi bo‘limining shtatlar birligini ta’minlash, ish haqini belgilash, xodimlarni ishga jalb etish, ular tomonidan o‘z xizmat vazifalarining bajarilishini nazorat qilish, talabalar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish va ijtimoiy himoya qilish hamda istiqomat qiluvchi talabalar o‘rtasida tashkiliy, xo‘jalik, huquqiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish mas’uliyati tegishli prorektorlar, boshqarma boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

8. Talabalar turar-joylari direksiyasi bo‘limi tarkibidagi barcha xodimlar prorektor tavsiyasi asosida rektor tomonidan tayinlanadi. Bo‘limning yillik ish rejasi universitet Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor tomonidan tasdiqlanadi va har yarim yilda o‘z faoliyati bo‘yicha Ilmiy Kengashga hisobot beradi.

3- bob. TALABALAR TURAR-JOYI DIREKSIYASI

1. TTJ direksiyasining asosiy maqsad – talabalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yashash sharoitlarini yaxshilash, ular o‘rtasidagi do‘stona muhitni qaror toptirish, bo‘sh vaqtlarini foydali mashg‘ulotlarga jalb etib, g‘oyaviy-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni muntazam olib borishdan iborat.

2. Talabalar turar-joylari direksiyasi bo‘limi fakultet dekanlari tomonidan turar joylarda professor-o‘qituvchilardan iborat jadval asosida tashkil etilgan kunduzgi va tungi navbatchilikni nazorat qiladi hamda rahbariyatga bu boradagi ma’lumotlarni taqdim etadi.

3. Sport-sog‘lomlashtirish ishlari Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi, universitet jamoat tashkilotlari hamkorligida tashkil etiladi. TTJda talabalarni sport-sog‘lomlashtirish hamda sport seksiyalariga jalb etgan holda sport musobaqalari tashkil etiladi.

4. Dekan muovinlari, Talabalar turar-joylari direksiya direktori, fakultet tyutorlari, tarbiyachi-pedagog, Yoshlar ittifoqi BT hamda OTFIV huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi bilan hamkorlikda eng toza va tartibli bino, xona, qavatlarni aniqlash maqsadida “Talabalar turar joyi – ikkinchi uyim”, “Eng namunaviy xona”, “Eng namunaviy qavat”, “Eng namunaviy TTJ” mavzularida ko‘rik tanlovlar tashkil etiladi.

5. Talabalar turar joyi, Talabalar turar-joylari direksiyasi bo‘limi tarbiyachi-pedagog hamda bino boshliqlari bilan birgalikda talabalar turar joyi jihozlaridan to‘g‘ri foydalanishni kuzatish, talabalar turar joyida ichki tartib-qoida, pasport rejimi va ruxsatnoma tizimi, talabalar turar joyi mulkining saqlanishini tashkil etadi.

4-bob. TALABALAR TURAR JOYIDA TALABALARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH

1. Talabalar turar joyida talaba-yoshlarda javobgarlik mas’uliyati, tashabbuskorlik, «O‘z uyingni o‘zing asra» his-tuyg‘usini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarish maqsadida talabalarning o‘zini o‘zi boshqaruvini shakllantirish va amalga oshirishda «Talabalar kengashi» (keyingi o‘rinlarda «Kengash») tashkil etiladi.

2. Kengash tarkibi umumiy ovoz berish orqali, talabalar tomonidan saylanadi. Talabalar boshqaruvi a’zolari «yaxshi» va «a’lo» baholarga o‘qiydigan, talabalar hayotini har tomonlama yaxshi biladigan, mustaqil fikrlovchi hamda jamoat ishlarida faol ishtirok etuvchi shaxslar bo‘lishi lozim.

3. Talaba o‘zini o‘zi boshqaruvi demokratik asoslarga quriladi.

4. Kengash raisi bir yil(bir o‘quv yili) muddatga saylanadi.

5. Har bir yo‘nalish va qavatga sardorlar saylanadi. Sardorlar yashovchilarning xonadagi mulkni, tozalik va tartib-intizomni saqlashini nazorat qiladi. Sardorlar Kengash qarorlariga asoslangan holda faoliyat olib boradi.

6. Kengash o‘z faoliyatini «Talabalar kengashi» haqidagi Nizom asosida tashkil etadi va olib boradi.

7. Quyidagi masalalar Kengash bilan kelishilgan holda hal etiladi:

- ma’muriyat tomonidan yashovchining bir xonadan ikkinchi xonaga ko‘chirilishi;
- yashovchilarni rag‘batlantirish yoki intizomiy choralar ko‘rish.

8. Universitet Talabalar turar-joylari moddiy-texnik ta’minoti bo‘limi qoshida «Talabalar birlashgan kengashi» tashkil etilishi mumkin. Mazkur kengash bir nechta talabalar turar joylari kengashlarini o‘zida birlashtiradi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

5-bob. TALABALAR TURAR JOYLARIDA TARBIYAVIY ISHLAR

1. TTJdagi tarbiyaviy ishlar universitet faoliyatining ustuvor tarkibiy qismi sanalib, rektor rahbarligida prorektorlar, tegishli bo‘limlar, jamoat tashkilotlari, fakultet dekanlari, dekan muovinlari, tyutorlar, tarbiyachi pedagoglar hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

2. TTJda prorektorlar tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda mas'ul sanaladi. Ular talabalar turar joyi ma'muriyati, tarbiyachi-pedagog, dekanatlar, kafedralar hamda professor-o'qituvchilar tarkibi bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni boshqaradi.

3. TTJda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar universitetning maxsus ishlab chiqilgan rejasi asosida turli davlat va jamoat tashkilotlarining jalb qilgan holda olib boriladi.

4. TTJda 5 ta muhim tashabbus yo'nalishlari bo'yicha badiiy va texnik ijodiy havaskor to'garaklar, sport va turistik seksiyalar hamda qiziqishlar bo'yicha klublar, shuningdek, fan, san'at, adabiyot namoyandalari bilan uchrashuvlar, disputlar, tematik kechalar va bayram tadbirlari tashkil etiladi.

6-bob. TALABALAR TURAR JOYIDA YASHOVCHI TALABALARGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLAR

1. TTJda quyidagi xonalar faoliyati yo'lga qo'yiladi:
- 5 ta muhim tashabbus xonalari;
- o'quv va dars tayyorlash xonasi;
- dam olish xonasi;
- yuvinish xonasi;
- dazmol xonasi;
- oshxona;
- to'garaklar va boshqalar.

7-bob. TALABALAR TURAR JOYLARI HOLATINI NAZORAT QILISH

1. TTJ holati universitet rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan maxsus reja asosida o'rganib boriladi hamda uning natijalari Ilmiy Kengash yig'ilishlarida muhokama etiladi.

2. TTJ faoliyati universitet prorektorlari tomonidan doimiy nazorat etib boriladi va o'z yo'nalishi bo'yicha vazifalarni amalga oshirish yuzasidan rektorga takliflar kiritadi.

3. Har bir talabalar turar joyida bildirilgan mulohaza va fikrlarini yozish uchun qaydnoma daftari (1 nusxa, muhrlangan) bo'lishi lozim.

4. TTJda «Adolat qutisi» tashkil etiladi va yashovchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar har haftada bir marta o'rganilib, muhokama qilinadi hamda tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

5. Universitet tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy tarmoqlari orqali TTJda yashovchilarning murojaatlari va fikr-mulohazalari bo'yicha rahbarlar tomonidan tegishli choralar ko'rib boriladi.

8-bob. TALABALAR TURAR JOYLARINI MOLIYALASHTIRISH

1. TTJ universitetga ajratilgan budjet, budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

2. TTJ shtat birliklari universitetning amaldagi shtat birliklari asosida belgilanadi.

9-bob. TALABALAR TURAR-JOYI DIREKSIYASI DIREKTORINING XIZMAT VAZIFALARI

1. Talabalar turar-joylari direksiyasi direktori – talabalar turar joyi faoliyatini tashkil etishning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy rahbarlikni olib boradi.

2. Talabalar turar-joylari direksiyasi direktori lavozimiga tayinlanadigan shaxsga qo‘yiladigan talablar.

Uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- TTJning faoliyatini tashkil etish dasturi va rejasini ishlab chiqadi;
- joriy yilda olib borgan faoliyati bo‘yicha har yarim yilda universitet Ilmiy kengashiga hisobot beradi;
- TTJ boshqaruvidagi lavozimlarga shtat birliklari asosida xodimlar va ishchilarni tanlaydi, ishga qabul qilish va ishdan ozod etish bo‘yicha o‘z tavsiyalarini rahbariyatga rasmiylashtirish uchun taqdim etadi;
- sanitariya me’yorlarining bajarilishini ta’minlaydi;
- o‘rinlarni talabalarning jinsi, fakultetlar bo‘yicha taqsimotini belgilaydi, ular haqidagi umumiy ma’lumotlar banki, axborotlar, statistik jadvallarni tayyorlaydi, ushbu ma’lumotlar bilan universitet rahbarlarini doimo xabardor etib turadi;
- TTJning moddiy-texnik ta’minotini tahlil etadi, ehtiyoj va talablar asosida zarur materiallar, jihozlar uchun buyurtmalar beradi;
- talabalarning yashashi, dars tayyorlashi va dam olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;
- pasport tizimi, talabalar turar joyiga kirib-chiqish qoidalarining qat’iy bajarilishini ta’minlaydi;
- doimiy navbatchilikning uzluksizligini ta’minlaydi;
- haftalik yig‘ilishlar, tadbirlarda ishtirok etadi, talabalar turar joyiga tegishli bo‘lgan masalalar bo‘yicha huquq-tartibot organlari, tashkilotlar, muassasalar bilan hamkorlikda ish olib boradi;
- nazoratchilar guruhi faoliyatini tashkillashtiradi hamda «Qalqon» guruhi bilan hamkorlikda ishlashni ta’minlaydi;
- talabalar bo‘sh vaqtini foydali mehnat bilan to‘ldirishni amalga oshiradi;
- TTJga joylashgan talabalarga ichki tartib-qoidalarini tushuntirib, shartnoma tuzish ishlarini olib boradi;
- TTJda kommunal-xo‘jalik xizmatlari, issiq va sovuq suv ta’minoti, elektr energiya, kanalizatsiya, issiq suv quvurlarining uzluksiz ishlashini ta’minlaydi;
- istiqomat qilishi kerak bo‘lgan talabalarni tanlash va joylashtirishda universitet jamoasi, Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, fakultet dekanlari, dekan muovinlari, Yoshlar ittifoqi BT a’zolari, Xotin-qizlar maslahat kengashi bilan hamkorlikda ish olib boradi;
- universitet va talabalar o‘rtasida tuzilgan shartnoma bajarilishini ta’minlaydi;
- TTJda olib boriladigan jamoaviy ishlar, badantarbiya, to‘garak ishlarini nazorat qiladi;
- har chorakda o‘zini o‘zi boshqarish hisobotini tayyorlash va boshqaruv jarayonini yaxshilashga oid takliflarni tayyorlaydi;
- ichki tartib-qoidalarini buzgan talaba-yoshlarni birinchi navbatda turar joyidan va universitetdan chetlashtirish yoki boshqa ma’muriy choralar ko‘rish bo‘yicha takliflar tayyorlab, fakultet va universitet rahbariyatiga yetkazadi;
- universitet va fakultet rahbariyati hamda tarbiyachi-pedagog, bino boshliqlari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

- TTJga tegishli, unda yashovchi talabalarga taalluqli barcha masalalar bo‘yicha rektorat, dekanatlar va xo‘jalik ishlari bo‘limiga o‘z taklifi bilan murojaat etish;
- TTJ yig‘ilishlarida talabalar kengashi raislarining hisoboti va takliflari, murabbiylar va tytorlar axborotlarini eshitish va bino boshlig‘i hamda talabalar turar joyidagi xizmatchilarning ishlari xususidagi masalalarni ko‘rib chiqish;
- boshqa oliy o‘quv yurtlarining talabalar turar joylaridagi ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarini o‘rganib chiqib, samadorligini oshirishga qaratilgan takliflarni rektorat va fakultet dekanatlariga yetkazish va ularni TDTU talabalar turar joylarida joriy etish;
- TTJda olib boriladigan ishlarda faol ishtirok etgan TTJ xodimlarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishga tavsiya etish;
- TTJda ichki tartib-qoidalarini qo‘pol ravishda buzgan talabalarni universitetdan chetlashtirish darajasigacha bo‘lgan takliflarni Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektorga yetkazish.

11-bob. TTJDA YASHOVCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Huquqlari:

- o‘ziga ajratilgan xonada o‘rnatilgan ichki tartib-qoidalarga rioya qilgan holda yashash;
- talabalar turar joyi binolaridagi madaniy-maishiy jihozlardan foydalanish;
- foydalanish uchun yaroqsiz holga kelgan jihoz, mebel va boshqa mulklarni ta’mirlash, yangilash hamda maishiy xizmatlardan foydalanishda yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etishni so‘rab, rahbariyatga murojaat qilish;
- talabalar turar joylarida o‘tkaziladigan ommaviy-madaniy, sport va tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish;
- yaratilgan shart-sharoitlar bo‘yicha universitet ma’muriyatiga takliflar bilan chiqish;
- «Talabalar kengashi»ning a’zolarini saylash va unga saylanish;
- «Talabalar kengashi» orqali talabalar turar joyining maishiy ta’minotini takomillashtirish, tarbiyaviy ishlar va madaniy hordiqni tashkil etish, yashash xonalarini jihozlash bo‘yicha masalalarni hal etishda ishtirok etish;
- 5 ta muhim tashabbus xonalaridan oqilona foydalanish.

Majburiyatlari:

- universitet ichki tartib-qoidalariga qat’iy amal qilish;
- universitet bilan tuzilgan o‘zaro ikki tomonlama shartnomaning barcha bandlari qoidalariga qat’iy rioya qilish;
- navbatchilik jadvaliga binoan xonalarda, qavat va kirish joylarida navbatchilik qilish, dam olish joylarida namunali tozalikni ta’minlash;
- gaz va elektr asboblaridan unumli foydalanish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;
- yashab turgan xona va umumiy foydalanish joylarini har doim saranjom tutish;
- xonadoshlar hamda talabalar turar joyida yashayotgan talabalar bilan samimiy va ahil munosabatda bo‘lish;
- qavat va seksiya sardorlari, talabalar kengashi raisi topshiriqlarini bajarish;
- keltirilgan zararni qoplash;

- talabalar turar joyi va xonadagi mavjud barcha jihozlarni (shifoner, krovat, tumbochka, stol, stul va h.k.) namunali darajada tutish;
- TTJ va xonadagi mebellarni, deraza va unga qo‘yilgan oynalarni sindirmaslik, eshik qulflarini talabalar turar joyi mudirining ruxsatisiz almashtirmaslik;
- umumiy foydalanish joylariga o‘rnatilgan yoritgichlar, elektr va gaz plitalarini ehtiyot qilish, yuvinish xonasi, oshxona hamda 5 ta muhim tashabbus xonalari jihozlaridan to‘g‘ri foydalanish;
- elektr va gaz plitalaridan tejab foydalanish, qo‘lbola elektr isitgich asboblaridan foydalanmaslik;
- jadval bo‘yicha navbatchilik qilish, belgilangan muddatda qavatni hamda umumiy foydalanish joylarini (hojatxona, yuvinish xonalari, ovqat pishirish xonasi va boshqalar) tozalash, maishiy chiqindilarni maxsus belgilangan joylarga o‘z vaqtida chiqarib tashlash;
- TTJda o‘tkaziladigan hashar, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarida muntazam, faol qatnashish;
- TTJdan uzoq muddatga ketishdan oldin (yozgi va qishki ta’tilga, dam olishga, amaliyotga) xonadagi jihozlar va xona kalitini bino boshlig‘iga topshirish;
- bitiruv malakaviy ishlari tugallagandan so‘ng yoki universitetdan chetlashtirish to‘g‘risida buyruq chiqarilgan taqdirda xona va undagi jihozlarni 3 kun muddat ichida bino boshlig‘iga topshirish;
- TTJdagi yashash xonalari va zallarida maxsus oyoq kiyimi (shippaklarda) yurish.

12-bob. TALABALAR TURAR JOYIDA YASHOVCHILARGA QUYIDAGILAR MAN ETILADI:

- Talabalar turar-joylari direksiyasi direktori va bino boshlig‘i ruxsatisiz bir xonadan ikkinchi xonaga ko‘chib o‘tish;
- yashash xonasida kir yuvish;
- ruxsatsiz uyiga, qarindoshining uyiga ketib qolish, uzrli sabablarsiz TTJga o‘z vaqtida kelmaslik;
- xonadagi anjomlarni boshqa xonaga ruxsatsiz ko‘chirish;
- xonadagi elektr tarmoqlarini o‘z xohishicha o‘zgartirish va qo‘shimcha yoritgich o‘rnatish;
- devorlarga turli rasmlar chizish, har xil qog‘ozlar ilish;
- ovoz chiqaruvchi qurilmalar ovozini xona tashqarisidan yuqori eshitilishi, yuqori ovozda ashula aytish va musiqa asboblarini chalish;
- elektr isitgichlar va kerosindan foydalanib ishlaydigan asboblarni ishlatish;
- begona odamga tunab qolish uchun joy berish;
- bino ichkarisida savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanish;
- tavakkalchilikka asoslangan onlayn va oflayn qimor o‘yinlarini o‘ynash;
- spirtli ichimlik, tamaki mahsulotlari iste’mol qilish, o‘yin kartalaridan foydalanish taqiqlanadi.

Ushbu tartiblarni buzgan talabalar direksiyasi direktori va bino boshlig`ining bildirgisi asosida TTJ dan chiqarib yuboriladi va talaba bilan tuzilgan shartnoma bekor qilinadi.

13-bob. UNIVERSITET MA’MURIYATINING MAJBURIYATLARI

1. Rektor, prorektorlar, dekanlar, talabalar turar-joylari direksiyasi direktori, tarbiyachi-pedagoglar, bino boshliqlari – talabalar turar joyi tozaligi, sanitariya holati,

talabalar turar joyida yashovchilarning daxlsizligi va tarbiyaviy ishlar samaradorligi uchun mas'uldirlar.

2. Universitet ma'muriyatining majburiyatlari:

- TTJda sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;
- TTJni tegishli choyshab, yostiq jildlari va boshqa zarur anjomlar bilan ta'minlash;
- TTJda o'tkaziladigan tadbirlar, madaniy-ommaviy ishlar hamda sport musobaqalarini o'tkazishni ta'minlash;
- 5 ta muhim tashabbus xonalari va undagi jihozlar bilan ta'minlash;
- TTJda joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;
- TTJda yashash sharoitlarini tegishli me'yorlar asosida jihozlar bilan ta'minlash;
- TTJda faoliyat yurituvchi shaxslarni zaruriy ish o'rinlari bilan ta'minlash;
- TTJda yuzaga kelgan maishiy xizmat tizimidagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish va qayta tug'ilmasligining oldini olishdan iborat.

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETIDA TALABALAR TURAR JOYLARIGA TALABALARNI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA MEZONLARI

Universitetda talabalarni TTJga joylashtirish, TTJga joylashish uchun onlayn navbatga turish davlat xizmatlari markazi va O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali amalga oshiriladi. Bunda talabalar tomonidan yuborilgan arizalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining maxsus axborot tizimi (billing.edu.uz)ga kelib tushadi. Kelib tushgan arizalar avtomatik tarzda imtiyozli yoki umumiy ro'yxatga kiritiladi. Talabalar turar joyiga birinchi navbatda imtiyozli ro'yxatga kiritilgan talabalar joylashtiriladi. Qolgan joylarga umumiy ro'yxatdagi talabalar navbat asosida joylashtiriladi.

Imtiyozli ro'yxatga quyidagi mezonlarning biriga mos keluvchi talabalar kiritiladi:

a) tegishli tasdiqlovchi ma'lumotlar asosida:

"Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilari, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan talabalar;

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri", "Temir daftar" va "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oila (ayol) farzandlari;

I va II guruh nogironligi bo'lgan talabalar;

xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan talabalar;

bir oiladan bakalavriat bosqichi kunduzgi ta'lim shaklida ikki yoki undan ortiq to'lov-shartnoma asosida o'qiyotgan oilalar farzandlari;

b) universitet rektori buyrug'i asosida:

xalqaro va vazirlik tomonidan o'tkaziladigan respublika miqyosidagi fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan talabalar;

vazirlik tomonidan o'tkaziladigan "Zakovat" intellektual o'yinlari respublika bosqichi g'oliblari;

"Yil talabasi" ko'rik-tanlovi respublika bosqichi g'oliblari;

"Talabalar teatr studiyalari" tanlovining respublika bosqichi g'oliblari;

talabalar turar joyida talabalar kengashi raisi, qavat sardori "Qalqon" jamoatchilik guruhi a'zolari bo'lgan talabalar hamda "Bunyodkor" yoshlar mehnat otryadi a'zolari va o'quv yili davomida universitetda tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muntazam ishtirok etgan faol talabalar.

Universitetga qarashli talabalar turar joyi sig'imi quyidagicha taqsimlanadi:

1-kurs talabalari uchun 55-65 foizi;

2-kurs talabalari uchun 15-20 foizi;

3-kurs va undan yuqori kurs talabalari uchun 20-25 foizgacha ajratiladi.

Bunda:

kurslarga ajratilgan, biroq to'lmay qolgan o'rinlar avvalo quyi kurs talabalari orasida, so'ng kurslarning ortib borishi tartibiga qat'iy amal qilgan holda yuqori kurs talabalari orasida qayta taqsimlanadi;

talabalar turar joyidagi o'rinlar soni fakultetlar kesimida qayta taqsimlanishi mumkin.

Talabalar quyidagi ketma-ketlik asosida talabalar turar joyiga joylashtiriladi:

bitta oiladan bakalavriat bosqichi kunduzgi ta'lim shaklida ikki yoki undan ortiq to'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan oila farzandlari;

kunduzgi ta'lim shaklida o'qiyotgan talabalar (kunduzgi ta'lim shaklida o'qiyotgan talabalar turar joyiga ehtiyoji bor talabalar to'liq ta'minlanmasdan turib, boshqa ta'lim shaklida o'qiyotgan talabalarni turar joyga joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi);

talaba qizlar (talabalar kontingentidan kelib chiqib universitet rektori ushbu ustuvorlik ulushini belgilaydi);

bakalavriat bosqichida o'qiyotgan talabalar (bakalavriat bosqichida o'qiyotgan turar joyga ehtiyoji bor talabalar to'liq talabalar turar joyiga joylashtirilmasdan, ta'limning doktorantura bosqichida o'qiyotgan talabalarni turar joyga joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi);

universitet joylashgan hududdan boshqa hududda doimiy yashovchi talabalar;

ariza berilgan sana bo'yicha navbat asosida;

maxsus axborot tizimi (billing.edu.uz)da TTJga qabul qilingan talabalarga avtomatik tarzda yo'llanma shakllantiriladi;

talabalar turar joyiga qabul qilingan talabalar yo'llanmani YIDXP yoki davlat xizmatlari markazlari orqali olishadi;

talabalarni talabalar turar joyiga yo'llanmasiz qabul qilish taqiqlanadi;

talaba yo'llanma shakllangandan so'ng 10 ish kuni mobaynida universitet bilan shartnoma tuzmasa yoki talabalar turar joyi uchun dastlabki to'lovni to'lamagan taqdirda, yo'llanma bekor qilinadi;

o'tgan o'quv yili davomida talabalar turar joyida istiqomat qilib, universitetning "Odob-axloq kodeksi" va ichki tartib-qoidalariga rioya etmagan holda talabalar turar joyidan chetlashtirilgan talabalar yangi o'quv yilida talabalar turar joylari joylashtirilmaydi;

talaba shartnomada ko'rsatilgan jami to'lov-shartnoma miqdorining birinchi yarmini shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 10 kun muddatda, ikkinchi yarmini esa o'quv yilining 1-fevral sanasiga qadar amalga oshirishi shart;

talaba tegishli oy davomida 1 kun bo'lsa ham xizmatdan foydalanganda (talabalar turar joyida istiqomat qilganda), ushbu oy uchun to'lov to'liq amalga oshiriladi;

talabalar turar joylariga joylashish uchun arizalar har yili 1-avgustdan boshlab o'quv yili yakuniga qadar davom etadi;

imtiyozli va umumiy ro'yxatlar bo'yicha barcha navbatlar har o'quv yili yakunidan so'ng bekor qilinadi hamda avgust oyidan boshlab talabalarning murojaatlari asosida qaytadan shakllantiriladi.

Talabalar turar joyi uchun oylik to'lovdan ozod qilish yoki chegirma berish quyidagicha belgilaladi:

"Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilari, chin yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan talabalar;

I guruh nogironligi bo'lgan talabalar to'liq ttj to'lovidan ozod qilinadi.

namunali faoliyat olib borayotgan Talabalar kengashi raislari yuz foiz, II guruh nogironligi bo'lgan talabalar va qavat sardorlari ellik foiz TTJ to'lovidan ozod qilinadi.

O‘qish davrida og‘ir ijtimoiy sharoitga tushib qolgan talabalar fakultet dekani tavsiyasi asosida universitet rektori buyrug‘i bilan qisman yoki to‘liq TTJ to‘lovidan ozod qilinishi mumkin.

Zarur xollarda Yoshlar masalalari va ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor xamda Moliya iqtisod ishlari bo`yicha prorektorlar tavsiyasiga asosan Universitet xadimlarini talabalar turar joyiga vaqtinchalik joylashtirishi mumkin.

NIZOM VA MEZONGA O‘ZGARTIRISH, QO‘SHIMCHALAR KIRITISH VA BEKOR QILISH

Ushbu Nizom va mezonga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, kuchini yo‘qotgan deb topish universitet Kuzatuv kengashining qarori bilan amalga oshiriladi.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
rektori, Kuzatuv kengashi kotibi

_____ Sh. A. Boymuradov

2025 yil “___” _____